MUHAMMAD YUSUF POETIKASIDA XALQ MAQOL VA MATALLARI, AFORIZMLARNING QO‘LLANISHI

Kushbakova Dilnoza Avalboyevna
Jizzax davlat pedagogika universiteti I bosqich tayanch-doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Muhammad Yusuf poetikasida xalq maqol va matallari hamda aforizmlarning qo‘llanish xususiyatlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Shoir she’riyatida xalqona iboralar, hikmatli so‘zlar va barqaror birliklarning semantik hamda pragmatik vazifalari yoritiladi. Shuningdek, maqolada paremiologiya va frazeologiya sohasida tadqiqot olib borgan tilshunos olimlarning nazariy qarashlari asosida Muhammad Yusuf ijodining xalqchil poetikasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: poetika, maqol, matal, aforizm, paremiologiya, xalqona uslub, lingvopoetika, badiiy til, frazeologizm.

O‘zbek she’riyati taraqqiyotida Muhammad Yusuf ijodi alohida o‘rin egallaydi. Shoir she’rlarining xalq orasida tez ommalashishiga sabab bo‘lgan muhim omillardan biri uning xalqona til vositalaridan mahorat bilan foydalanganidadir. Ayniqsa, xalq maqollari, matallari va aforizmlarning poetik matnda tabiiy qo‘llanishi shoir uslubining o‘ziga xos jihatini tashkil etadi.

Tilshunoslikda maqol va matallar paremiologiyaning asosiy tadqiq obyektlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilshunosi Shavkat Rahmatullayev frazeologik birliklar xalq tafakkuri va milliy mentalitetni aks ettiruvchi muhim til hodisasi ekanligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, “xalq iboralari badiiy matnning emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytiradi”[1]. Shu jihatdan qaralganda, Muhammad Yusuf she’riyatida maqol va matallarning faol qo‘llanishi xalq ruhiyatini ifodalashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Muhammad Yusuf ijodida xalq tili unsurlari, oddiy va samimiy ifodalar ustuvorlik qiladi. Shoir murakkab poetik konstruksiyalardan ko‘ra sodda, ammo chuqur ma’noli iboralarni tanlaydi. Bu esa she’rlarning keng kitobxonlar ommasiga tez yetib borishini ta’minlaydi. Masalan, shoirning quyidagi misralarida xalqona ruh yaqqol seziladi:

Toshni suv kemirar, Suvni qaro yer,
Yerni kalamushlar kemirganin ko‘r
Dashtda jayronlarni qiyratadi sher,
O‘zbekni qiyratar mahalliychilik. (“Mahalliychilik”)

Maqollarda “Toshni suv kemirar, Suvni qaro yer**“ jumlasiga mazmunan o‘xshash bo‘lgan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, “Tomchi tomib tosh teshar.”**
Mazkur misralar xalq maqollarining poetik transformatsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Aslida **“**Toshni suv kemirar, Suvni qaro yer**“** maqoli xalq orasida keng qo‘llanadi. Shoir ushbu maqolni she’riy kontekstga moslashtirib, insonning jamiyatdagi ma’naviy izini ta’kidlashga xizmat qildiradi.

Shoir poetikasida maqollar bir necha vazifani bajaradi:

1. Tarbiyaviy-estetik vazifa. Maqollar xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasini ifodalaydi. Muhammad Yusuf she’rlarida ular axloqiy g‘oyalarni ilgari suradi.

2. Emotsional-ekspressiv vazifa. Maqollar she’rning ta’sirchanligini oshiradi. Xalq tiliga yaqin iboralar o‘quvchi qalbiga tez yetib boradi. Masalan:

Abrorlaring sahnalarni titratgan,
Shukur Burxon tosh dilni ham yig‘latgan.
Bir qo‘lida yurtni, bitta qo‘lida
Qodiriyning beshigini tebratgan.
Qayga borsam quchog‘iga shoshganim,
Mehribonim mening -shahri Toshkanim.

[1] Рахматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. – Тошкент: Фан, 1955. – Б. 26.

Mazkur maqol she’riy matnda insonlar xarakterining turlicha ekanligini qisqa va lo‘nda ifodalashga xizmat qiladi.

3. Milliy kolorit yaratish. Shoirning xalq maqollaridan foydalanishi milliy ruhni kuchaytiradi. She’r matnida o‘zbekona tafakkur va mentalitet aks etadi. Muhammad Yusuf ijodida aynan shu model poetik estetikani shakllantiradi. “Odatda, maqolni dastlab o‘tkir kuzatuvchanlik va o‘z fikrini bir necha so‘z bilanoq ravshan ifodalab berish qobiliyatiga ega bo‘lgan bir kishi to‘qib chiqaradi. O‘rinli ifodalangan bu fikr, dastlab individual bo‘lgan bu xulosa keyinchalik jamoa tomonidan qabul qilinishi, qayta ishlanishi, sayqallanishi mumkin. Bu esa maqolning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday maqol dastavval bir aniq voqeaga, ayrim, yagona bir holga bag‘ishlangan bo‘ladi. Bunday o‘rinli aytilgan gap omma orasida qanday ishlatilishiga qarab, asta-sekin keng umumlashma ma’noga ega bo‘la boradi”[1].

Matallar maqollarga qaraganda ko‘proq obrazlilik va kinoyaviy ma’no bilan ajralib turadi. Muhammad Yusuf she’riyatida matallar xalqona yumor va samimiyatni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi:

Yoki bo‘lmasa shoirning “Bosmachilar”she’rini olaylik…

Kengashsangiz tor dunyolar keng bo‘lardi,
Ergash yoqa bo‘lsa, Shermat yeng bo‘lardi.
Birlashsangiz kim ham sizga teng bo‘lardi,
Nechun ahil bo‘lmadingiz “bosmachilar”? (“Bosmachilar”)

“Kengashganga keng dunyo” — bu maqol.

Ma’nosi: Maslahat bilan ish qilgan odamning yo‘li ochiq bo‘ladi. Boshqalar bilan fikrlashib ish tutgan inson g‘olib bo‘ladi.

Shahri non deydilar, shahri quyoshsan.
Yaxshi niyat har ko‘ngilga yo‘ldoshsan
Dunyolarni chorlab chaman bag‘riga,
Ozod elning orzusiga sirdoshsan
Qayda yursam quchog‘iga shoshganim,
Qadrdonim mening -shahri Toshkanim.

Toshkent-non shahri , deya azaldan ulug‘lanishida ham hikmat ko‘p.Toshkent shahrining qadimdan noni bilan mashhurligi, mo‘l-ko‘lligi va mehmondo‘stligini ifodalash uchun xalq orasida bu aforizm keng tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Xalq bo‘l elim” Muhammad Yusuf “O‘zbekiston”nashriyoti 2019
2. “Biz baxtli bo‘lamiz” Muhammad Yusuf “O‘zbekiston”nashriyoti 2019.
3. "O‘zbek xalq maqollari" X.Suvonqulova "Adabiyot uchqunlari", Toshkent. 2014
4. Jurayeva Bibish MuSinovna. Uzbek Xalq Maqollari Shakllanishining Lingvistik Asoslari Va Pragmatik Xususiyatlari. Avtoreferati. Samarkand -2019

[1] Карриев Б.М. Туркменские пословицы и поговорки. – Ашхабад: Наука, 1961. – С. 16.